



XALQARO AUDIT STANDARTLARI ASOSIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

Kafiyev Hojiakbar Hosilbek o'g'li

Bank moliya akademiyasi

Davlat moliyaviy nazorati va audit yo'nalishi

kafiyevhojiakbar@gmail.com

+998902555722

***Annotatsiya.** Maqolada auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditning samaradorligiga va tekshirilayotgan xo'jalik subyektlar faoliyatining uzluksizligiga ta'sir qiladigan omillar kabi masalalar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** auditorlik faoliyat, tashqi audit, auditorlik taomillari, auditning samaradorligi, faoliyatning uzluksizligi.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach birinchilardan bo'lib auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunni qabul qilgan [1]. Ushbu qonunga binoan auditorlik faoliyati deganda, auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Auditorlik xizmatlari auditorlik tekshiruvlarini va professional xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi vabuxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotini auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Quyidagilar har yili majburiy auditorlik tekshiruvdan o'tishi kerak:

- ▶ aksiyadorlik jamiyatlari;
- ▶ aktivlarning balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravaridan ko'p bo'lgan mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar;
- ▶ banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- ▶ sug'urta tashkilotlari;
- ▶ investitsiya fondlari, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar;
 - ▶ manbalari yuridik, jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish hayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;
 - ▶ mablag'larining hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish budjetdan tashqari fondlar;
 - ▶ ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat unitar korxonalar;
 - ▶ fond va tovar birjalari.

Auditorlik xizmatlarini ko'rsatayotganda tekshirilayotgan korxonaning bevosita ishtiroki va uning resurslaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Resurslarning cheklanganligi auditning samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi, qo'shimcha ajratilgan resurslar esa samaradorlikni oshiradi.

Quyida asosiy resurslarning ro'yxati keltirilgan.

Xodimlar bilan ishlash. Audit o'tkazish jadvali bilan asosiy xodimlarning mehnat ta'tili va xizmat safarlarini muvofiqlashtirilishi lozim [2]. Ma'lumotlarni to'plashga doir va tekshirilayotgan korxonaning asosiy xodimlari – IT bo'yicha



direktor, QQS bo'yicha buxgalter, xaridlar bo'yicha bo'lim boshlig'i va boshqalar bilan ishlash strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. Hamkorlik qilishning turli variantlari mavjud bo'lib, barcha xodimlar bilan ishlashning cheklangan resurslari sharoitida faqat tayinlangan xodim bilan aloqa qilishdan absolyut ochiq muloqotgacha bo'lishi mumkin. Har bir variantning o'ziga yarasha plyus va minuslari bor. Resurslarning cheklangan sharoitida axborot olish vaqti va tayinlangan shaxs tomonidan ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish ehtimoli oshadi, absolyut ochiq muloqot sharoitida sezilarli ma'lumotlarni oshkor qilinish riski, auditorlar tomonidan mavzuga tegishli bo'lmagansavollarga ortiqcha qiziqishlari paydo bo'lishi mumkin.

Hisob tizimidan foydalanish. Auditorning kompyuteriga ma'lumotlar bazasini ko'chirish, yoki tekshirilayotgan korxonadan berilgan kompyuterga ko'chirish, yoxud auditorlarning talablaridan kelib chiqqan holda ma'lumotlarni ko'chirish yoki masofadan kirish imkoniyati ta'minlanishi bilan amalga oshirilishi mumkin. Ma'lumotlardan foydalanishni tanlash xavfsizlik siyosati va boshqa sabablardan kelib chiqqan holda, auditning samradorligiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari ma'lumotlar bazasini ko'chirish buxgalteriya xizmatiga qo'shimcha ishlarini oshiradi.

Ish vaqti. Agar audit «sezon» vaqtida amalga oshiriladigan bo'lsa, auditni o'tkazishga doir takliflarni ishlab chiqayotganda, auditorlik tekshiruvda qatnashayotgan auditorlarning me'yordan ortiqcha ishlash soatlari uning qiymatiga qo'shilgan bo'ladi. Shuning uchun auditorlarning me'yordan ortiqcha ishlash soatlarini korxonaning ishlashvaqti bilan oldindan muvofiqlashtirilishi kerak.

Telekommunikatsiya resurslari. Tekshirilayotgan korxonaning geografik joylashishi olis bo'lgan hollarda, auditni amalga oshirish katta afzalliklarga ega bo'ladi. Ustama xarajatlarni qisqartirish uchun auditorlarning bir qismi mijozning ofisida, boshqa bir qismi esa o'z ofislarida ishlashi mumkin. Shuning uchun yildan yilga sifatliinternetga bo'lgan talab va ehtiyoj oshib bormoqda.

Shuni yodda tutish kerakki, ma'lumotlarni taqdim qilish va tushuntirishlarni cheklash auditor tomonidan audit hajmini cheklash deb baholanishi mumkin, bu esa



auditorlik xulosasining modifikatsiyalanishiga olib kelishi mumkin.

Audit o'tkazish jadvali – bu ta'sirchan instrument hisoblanadi. Amaliyotda u shartnomaga kiritilmaydi, yoki nomigagina yozib qo'yiladi. Audit o'tkazish jadvali samarali instrument bo'lishi uchun, u: auditning ayrim taomillarini aniqlashtirish va detallashtirish lozim, umumlashtirilgan holda tayyorlash maqsadga muvofiq emasligi; audit o'tkazishda audit taomillarining tutashish joyiga e'tibor qaratish kerak, chunki oldingi taomil tugamasdan keyingisi boshlanmasligi; parallel taomillarni alohida ajratish; belgilangan ishlarni bajarish uchun aniq sanalarni belgilash; nazorat nuqtalarini aniqlanishi shart.

Audit o'tkazish jadvali faqat auditorlar uchun tuzilmaydi, balki mijoz uchun ham tuziladi. Tomonlar audit o'tkazish jadvaliga rioya qilishi audit o'tkazishning samaradorligini ta'minlaydigan omil hisoblanadi. Audit o'tkazish jadvalining asosiy jihati bo'lib, auditorga moliyaviy hisobotni tekshirish uchun taqdim qilish muddati hisoblanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Joriy iqtisodiy holatda auditor faoliyatning uzluksizligini tasdiqlab berish uchun mijozdan albatta so'raydi. Korxonada faoliyatining uzluksizligiga doir biror holat aniqlansa, o'zining shubhalarini asoslaydigan farazlarini tayyorlashi zarur.

Shu bilan birgalikda, amaliyotda kam e'tibor beriladigan auditning yakuniy bosqichi

– xatolar ustida ishlashni inkor qilmaslik zarur. Auditorlik xulosasi chop etilgandan keyin auditor va mijoz korxonada ishlarning bajarilishi, yo'l qo'yilgan xatoliklar va jarayonlarni takomillashtirishni tahlil qilish zarur. Bu keyingi yilda auditning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi» qonuni 1992 yil 9 dekabr (yangi tahriridagi qonun 2000 yil 26 may)da qabul qilingan.
2. Tulaxodjaeva M.M., Tulaev M.S. va boshqalar Audit. Darslik – T.: «Iqtisodiyot», 2018.
3. Tulaev M.S. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. 2019.
4. 570-sonli Auditning xalqaro standarti (AXS) «Faoliyatining uzluksizligi xaqidagi faraz».